

She'r sehriga mehr

O'z umrini, hayot mazmunini she'riyatsiz tassavvur qilolmaydigan adiblar bo'ladi. Ular qalb malhami, dil dardlarini ifodalovchi vosita, badiiy qurol sifatida she'riyatni e'zozlaydi. O'z tuyg'ularini, chizgilari va sezgilarini Vatan qadri xalq dardi bilan bog'lab aql chig'irig'idan o'tkazib qog'oz yuziga tushirishadi.



Ana shunday xassos, adiblardan biri xalq shoiri va qahramoni Abdulla Oripovdir. Shoир ijodiyotini kuzatarkansiz, falsafiylikka yo'g'rilgan nafosatni sezasiz. Uning ijodiyotiga oid juda ko'p ilmiy risola va monografiya yaratilishi shubhasiz. O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov aytganidek, "Abdulla Oripov fenomeni hali oxirigacha anglanmagan timsoldir". TIQXMMIda ulug' adib Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan "JONAJONIM, ShE'RUYAT!" nomli ruknda iqtidorli yozuvchi, jurnalist Abdusaid Ko'chimovning shoир haqidagi "Men shoirman, istasangiz shu..." deb nomlangan kitobining onlaysa taqdimoti bo'lib o'tdi.



Institut prorektori Ruzimurat Choriev tadbirni kirish so'zlari bilan ochgach, Respublika oliv ta'lif kengashi raisi, institut rektori, professor, Umurzakov O'ktam Pardaevichga so'z berdi. Ular institutda Abdulla Oripov ijodini ommalashtirish borasida qilinayotgan turli yo'sindagi ishlar va shoир nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishoni ta'sis etilganini faxr bilan ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, taqdimot etilayotgan kitobning ahamiyati haqida so'z yuritib ishtirokchi mehmonlarga o'zlarining samimiy minnatdorchiliklarini bildirdilar.



Unda kitob mualifi taniqli yozuvchi va publisist, O'zbekiston milliy axborot agentligining bosh direktori Abdusaid Ko'chimov, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, "O'zbekkino" milliy agentligi rahbarining birinchi o'rinnbosari, Shuhrat Rizaev hamda shoirning qizi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Shoira Oripova, TIQXMMI Qarshi filialining rahbari va professor o'qituvchilari hamda Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi o'qituvchi va o'quvchilari faol ishtirok etishdi. Abdusaid Ko'chimov "Men shoirman, istasangiz shu..." deb nomlangan xotira kitobining yaratilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tdi. So'zdagi sehrni va she'rdagi hikmatni anglagan adibning asarlari mangullika muhrlangan.



Shuhrat Rizaev esa shoirning ijodiyotida falsafiylik nafosatning uyg'unligi mavzusida so'z yuritdilar. Shoirning qizlari Shoira Oripova otasi haqidagi xotirotlari bilan o'rtoqlashdi. So'ngra Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining 10-sinf o'quvchisi Sevinch Omonova, TIQXMMI "Yer resurslarini boshqarish" fakul'tetining talabasi Dilnoza Jabborova, "Gidromelioratsiya" fakul'teti talabasi Sohiba Imomomalievalar o'zlarining hamda shoir she'rlaridan namunalar o'qishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati